

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
<b>Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли</b>	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	18
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	35
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	48
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSessorLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	68
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI .....	74
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	106
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	111
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	117
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	123
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	127
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	132
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	143
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJIRIBASI .....	151
<b>Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
<b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	161
<b>Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI .....	166
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	178
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	184
<b>O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI .....	196
<b>Ro‘zmetov Mansur</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
<b>Shaydulova Marjona Alisher qizi</b>	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
<b>Rizoyev Farrux Hikmatilloevich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
<b>Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	215
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ .....	225
<b>Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович</b> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ .....	231
<b>Тожалиев Шохрух Талип ўғли</b> GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING .....	236
<b>Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna</b> O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISH .....	241
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b> AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI .....	248
<b>Marufxanov Davron Hasanovich</b> O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI .....	255
<b>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</b> MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI .....	263
<b>Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna</b> DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI .....	268
<b>Anvar Deberdiyev</b> RAQAMLI XIZMATLARNING O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O‘RNI .....	272
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi</b> TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	278
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b> IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV .....	283
<b>Tadjiev Bexzod Umidjanovich</b> OTMNI MOLIYAVIY TA‘MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI .....	290
<b>Tuxliyev Bozor Karimovich</b> TOG‘-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	293
<b>Abirova Nargizabonu</b> TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	298
<b>Ro‘ziyeva Maftuna Yusufovna</b> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI .....	303
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b> METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	308
<b>Maxmudov Dostonbek Soyibjon o‘g‘li</b> SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	312
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b> O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI .....	317
<b>Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra</b>	



OLIV TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOIV XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
<b>Primova Nigora Ikrom qizi</b>	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR .....	331
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
<b>Majidova Maxliyo A'zam qizi</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	354
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
<b>Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova</b>	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
<b>Sanemkhan Abdullaeva</b>	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	375
<b>Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li</b>	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH .....	379
<b>Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
<b>Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI .....	403
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI .....	411
<b>Karimova Shaxnoza O'ktamovna</b>	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	423
<b>Xalimov Shaxboz Xalimovich</b>	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
<b>Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich</b>	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
<b>Utkirova Mamura Faxriddin qizi</b>	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI .....	436
<b>Isakov Axmadali Esanbayevich</b>	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH .....	444
<b>Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li</b>	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI .....	452
<b>Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi</b>	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY Tajribalar asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat Sektorini InstitutSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	461
<b>Sharapov Umidjon Shavkatovich</b>	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI .....	471
<b>Berdiyeva Dilfuza Axatovna</b>	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTlARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI .....	477
<b>Turayev Abduvoxid Kuldashevich</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	483
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI .....	488
<b>Suvonov Ibrohim Izbosarovich</b>	
QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI.....	492
<b>Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.</b>	
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	497
<b>Koriev Orif Azizovich</b>	
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	502
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich</b>	



# HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich**

IPU "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

**Karimov Chuxmor Abdirashidovich**

ATMU magistranti

E-mail: [jasurberdiyev6834@gmail.com](mailto:jasurberdiyev6834@gmail.com)

ORCID: [0009-0006-0111-4300](https://orcid.org/0009-0006-0111-4300)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yanada jadallashtirishga xizmat qiluvchi bandlik siyosatini samarali shakllantirish va amalga oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlari tahlil qilingan. Maqolada ushbu jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish, hududlarda ta'lim va bandlik tizimi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyati oliy ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari, 2011–2023-yillarda OTMlarga qabul qilingan talabalar va bitiruvchilar soniga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, 2023–2030-yillarga mo'ljallangan mehnat bozori ehtiyojlari prognoz qilinib, "Sanoat" tarmog'i bo'yicha korxonalar va tashkilotlarning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talabi hamda OTM bitiruvchilarining salohiyati o'rtasidagi uyg'unlik darajasi baholangan.

**Kalit so'zlar:** Korxonalar, tashkilotlar, kadrlar, oliy ta'lim, integratsiya, mehnat bozori, bitiruvchi, ta'lim tizimi, kasb, mutaxassislik, inson resurslari, ta'lim standartlari, samaradorlik, sifat, ehtiyoj, talab, mehnat resurslari, ish beruvchilar, bakalavriat, magistratura, bilim, texnologiya, hududlar.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы эффективного формирования и реализации политики занятости, направленной на ускорение социально-экономического развития регионов страны. Особое внимание уделено перспективным направлениям подготовки высококвалифицированных кадров на основе интеграции высшего образования и рынка труда. В статье анализируются возможности повышения эффективности управления данными процессами, укрепления сотрудничества между системой образования и рынком труда, а также рационального использования существующего потенциала регионов. Кроме того, представлены основные показатели высших учебных заведений Кашкадарьинской области, статистические данные о количестве студентов и выпускников, обучавшихся в 2011–2023 годах. Также проведён прогноз потребности рынка труда региона в высококвалифицированных кадрах на 2023–2030 годы и дана оценка уровня соответствия между потребностями отрасли «Саноат» и потенциалом выпускников высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** Предприятие, организация, кадры, высшее образование, интеграция, рынок труда, выпускник, система образования, профессия, специальность, человеческие ресурсы, образовательные стандарты, эффективность, качество, потребность, спрос, трудовые ресурсы, работодатели, бакалавриат, магистратура, знания, технологии, регионы.

**Abstract.** This article discusses the effective formation and implementation of employment policies aimed at accelerating the socio-economic development of the country's regions. Special attention is given to the promising directions of training highly qualified personnel through the integration of higher education and the labor market. The study highlights opportunities to improve the efficiency of managing these processes, strengthen cooperation between the education system and the labor market, and make effective use of regional potential. In addition, the article presents the main indicators of higher education institutions in the Kashkadarya region, including statistical data on admitted students and graduates during 2011–2023. Furthermore, forecasts of labor market demand for highly qualified personnel for 2023–2030 are provided, and the level of alignment between the needs of enterprises in the "Industry" sector and the potential of university graduates is evaluated.

**Key words:** Enterprise, organization, personnel, higher education, integration, labor market, graduate, education system, profession, specialty, human resources, educational standards, efficiency, quality, demand, labor resources, employers, bachelor's degree, master's degree, knowledge, technology, regions.



## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarorida [4] oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Mazkur qarorda mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularni iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari asosida zarur mutaxassisliklar bo'yicha shakllantirish, oliy ta'lim mazmunini korxonalar va tashkilotlarda qo'llanilayotgan ilg'or texnika hamda texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, qarorda bitiruvchilarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha samarali ishga joylashtirish, talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida tizimli tashkil etish, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, ta'lim muassasalarini malakali pedagog va boshqaruv kadrlari bilan ta'minlash hamda xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish muhim vazifalar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarining istiqboldagi kadrlar ehtiyojlarini aniqlash, bitiruvchilarga qo'yiladigan malakaviy talablarni ishlab chiqish va mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi ishtirokini yanada kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan.

Bugungi kunda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talablarini aks ettiruvchi samarali bandlik siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, oliy ta'lim tizimi hamda mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada faollashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur jarayonlar iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarni samarali qo'llash orqali ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim va mintaqaviy mehnat bozorining o'zaro integratsiyasi davlat tomonidan tartibga solinadigan hamda bozor mexanizmlari asosida shakllanadigan jarayon sifatida hududlarning ishlab chiqarish majmualarini zarur miqdordagi va yuqori malakali ishchi kuchi bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish, ularning manfaatlarini uyg'unlashtirish hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirishni talab etadi.

Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi mexanizmlarini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasining turli hududlari, jumladan, Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilayotgan integratsiya jarayonlari va ularning samaradorligini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, mikrodarajada — ya'ni korxonalar va tashkilotlar miqyosida — ish beruvchilar, ta'lim muassasalari va mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi hamda ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida, jumladan, Qashqadaryo viloyatida korxonalar va tashkilotlarning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talab hamda ehtiyojlarini samarali qondirish maqsadida amaldagi qonunlar, Prezident farmon va qarorlarida [1–10] tegishli vazifalar hamda ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayrim hollarda korxonalar tomonidan mehnat bozori ehtiyojlari haqida to'liq ma'lumot taqdim etilmasligi ularning bozordagi raqobat muhiti va iqtisodiy sharoitlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, korxonalar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini shakllantirish, ishonchli va mas'uliyatli sheriklikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim tizimi va mintaqaviy mehnat bozori o'rtasidagi zamonaviy hamkorlik shakllarini rivojlantirish zarurati professional ta'lim tizimi bitiruvchilarining zamonaviy ishlab chiqarish talablariga moslashuvchanligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Jumladan, "Rossiyada 2006–2010-yillarda ta'limni rivojlantirish bo'yicha Federal maqsadli dastur konsepsiyasi"da oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining 25 foizi hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarining 30 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashmaganligi qayd etilgan. Ta'lim bo'yicha Federal agentlik ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya universitetlarining 15–20 foizi mehnat bozori talablariga to'liq mos mutaxassislarni tayyorlay olgan [12]. Mazkur ma'lumotlar ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni prognozlashtirish masalasi ham ilmiy adabiyotlarda muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Rossiyalik olimlarning fikricha, mintaqaviy mehnat bozori faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari



ehtiyojni aniqlash va prognozlashtirish jarayonlarini murakkablashtiradi [13]. Shu sababli, mehnat bozori talablarini ilmiy asosda prognozlashtirish va oliy ta'lim tizimini ushbu ehtiyojlarga mos ravishda rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Inson resurslari sifatiga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish yo'nalishida Rossiyada Malaka oshirish milliy agentligi (NAPK) faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash, kasblar hamda mutaxassisliklar tasniflagichini takomillashtirish, ta'lim va kasbiy standartlarni o'zaro muvofiqlashtirish, milliy malaka tizimini xalqaro standartlarga integratsiyalash hamda xodimlarni sertifikatlashtirish tizimini rivojlantirishdan iboratdir [14]. Ushbu tajribalar ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Gerasimova G.ning fikricha, Germaniyada yetakchi korxonalar davlat ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda faol ishtirok etadi hamda malakali ishchi kuchini tayyorlashni qo'llab-quvvatlaydi [11]. Ushbu tajriba oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishda korxonalar ishtirokining muhimligini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimi bilan mintaqaviy mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlikning zamonaviy shakllarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish jarayonlariga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida vazirliklar, qo'mitalar, konsernlar, kompaniyalar, uyushmalar, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar hamda yirik tashkilotlar tomonidan inson resurslari sifatiga qo'yiladigan talablarni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2023-yil 1-iyun holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida internet tarmoqlarida e'lon qilingan bo'sh ish o'rinlari soni tumanlar kesimida 14 362 tani tashkil etgan.

Shuningdek, respublika bo'yicha 2022-yil 7-noyabr holatiga ko'ra, tashkilotlar soni 14 375 ta, ish izlovchilar reyumelari soni 265 792 ta, tanlov ishtirokchilari soni 1 223 123 nafar, test sinovlarida qatnashganlar soni 483 735 nafar, suhbat bosqichida qatnashganlar soni 206 812 nafar hamda ishga qabul qilinganlar soni 42 972 nafarni tashkil etgan [15]. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda mehnat bozori infratuzilmasi va inson resurslarini boshqarish tizimi izchil rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir hududiy mehnat bozori uchun o'ziga xos tashkiliy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish, korxonalarining mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash hamda ishlab chiqarishning mavjud va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasini takomillashtirish jarayonlarini chuqur tahlil qilish hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari tadqiqotning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Respublikamizda korxonalar va tashkilotlar bo'yicha bo'sh ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlar elektron platformasi orqali, davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlari haqidagi ma'lumotlar esa "Vacancy.args.uz" platformasi orqali

muntazam e'lon qilib boriladi. Mazkur elektron tizimlar mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ish beruvchilar hamda ish izlovchilar o'rtasidagi axborot almashinuvini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hollarda internet platformalarida joylashtirilgan ma'lumotlar korxonalaridagi real ehtiyojlardan farq qilishi mumkin. Natijada ish izlayotgan yuqori malakali mutaxassislar va bitiruvchilar tomonidan vakant ish o'rinlariga murojaatlar amalga oshirilganda, ish beruvchilar tomonidan qo'shimcha talablar yoki boshqa tashkiliy sabablar keltirilishi kuzatiladi. Bu esa bitiruvchilarning bandlikka ko'maklashuvchi markazlarga qayta murojaat qilishiga olib keladi. Mazkur holatlar mehnat bozori axborot tizimlarini yanada takomillashtirish va ish beruvchilar bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Hududlarda bitiruvchilarni ishga yo'naltirish va ularning bandligini ta'minlash vazifalari Bandlikka ko'maklashish davlat xizmatlari tomonidan ham tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilgan ishlar natijalari ish beruvchilar ehtiyojlari va so'rovlari asosida muntazam ravishda umumlashtirilib, tahlil qilinadi hamda tegishli ma'lumotlar bazalari yangilanib boriladi.

Tadqiqot metodologiyasini shakllantirish jarayonida Qashqadaryo viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar soni, oliy ma'lumotli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj, Qashqadaryo viloyati oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga qabul qilingan talabalar soni, talabalar kontingenti hamda bitiruvchilar soniga oid statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Ilmiy tadqiqot ishida qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, prognozlash, ekspert baholash hamda tizimli



tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali hududiy mehnat bozori ehtiyojlari va oliy ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasi baholandi hamda istiqbolda yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

IAKTB tizimi — integratsiya asosida kadrlar tayyorlashni boshqarish tizimi (hududlarda mehnat bozori va oliy ta'lim xizmatlari bozori o'rtasidagi integratsiya asosida kadrlar tayyorlashni boshqarishda yirik korxonalar majmuasi) — raqobatbardosh va intellektual salohiyati yuqori bo'lgan inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali konsepsiyani ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur tizim ko'p qirrali faoliyat yo'nalishiga ega bo'lib, nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarining ishchi kuchi va yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini aniqlashni, balki oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini zamonaviy standartlar asosida takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etishni ham nazarda tutadi. Bu esa hududlardagi ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ta'lim jarayonini zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda rivojlantirish hamda iqtisodiyotning malakali mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda asosiy masalalardan biri oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish hamda ish beruvchilar bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida samarali maqsadli aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. Bu jarayon yuqori malakali kadrlar bilan bog'liq mehnat munosabatlarining samaradorligi va sifatini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida IAKTB tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar tahlil qilindi. Hududiy darajada oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining uslubiy ta'minotini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni prognozlashtirish tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalar bo'yicha mavjud hamda istiqbolda yaratiladigan ish o'rinlari, lavozimlar, kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuv korxonalar faoliyatining kengayishi, ularning ixtisoslashuvining o'zgarishi, yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bog'liq ravishda zamonaviy bilim va texnologiyalarni puxta egallagan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda mavjud mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi.

IAKTB tizimi hududlardagi ish beruvchilarning real ehtiyojlari asosida oliy ta'lim muassasalari uchun professional buyurtmalar portfelini shakllantirish imkonini beradi. Shu asosda korxonalar va tashkilotlar tomonidan zamonaviy professional standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga ko'maklashiladi. Oliy ta'lim muassasalari esa iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha zamonaviy ta'lim standartlari, o'quv rejaları hamda fan dasturlarini takomillashtirib boradi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida yuqori malakali kadrlarni samarali ishga joylashtirish va professional ta'lim tizimini yanada rivojlantirishda ish beruvchilar birlashmalari, davlat hokimiyati organlari hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning eng samarali shakli ijtimoiy sheriklik hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalari va mehnat bozori subyektlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish maqsadida "Ijtimoiy sheriklik konsepsiyasi"ni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur konsepsiya davlat organlari, ish beruvchilar, oliy ta'lim muassasalari hamda bitiruvchilar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, hududlarda bandlik siyosatini samarali amalga oshirish, yosh mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish, shuningdek, qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi samaradorligi oshib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish uchun mustahkam asos yaratiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot tarmoq va sohalarini izchil rivojlantirishda korxonalar va tashkilotlarning oliy ma'lumotli, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Shu bois, hududlarda faoliyat yuritayotgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat granti va to'lov-kontrakt asosida, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida esa to'lov-shartnoma asosida bakalavr va magistratlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Ta'limning kunduzgi, sirtqi, kechki hamda masofaviy shakllari orqali mutaxassislar tayyorlanishi mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari

izchil rivojlanib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, ish beruvchilar tomonidan talabalarni o'qitish xarajatlarini qo'llab-quvvatlash, bitiruvchilarni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda ta'lim jarayonida amaliy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha samarali mexanizmlar shakllanib bormoqda. Mazkur yo'nalishda korxonalar va tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, zamonaviy laboratoriyalarni tashkil etish, innovatsion amaliyot bazalarini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishdagi faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yuqori malakali, raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarga ega kadrlar tayyorlash samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, hududlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun maqsadli ta'lim grantlari va korporativ stipendiyalar ajratishi, ularning o'qish xarajatlarini qisman yoki to'liq moliyalashtirishi hamda bitiruvchilarni keyinchalik ish bilan ta'minlash tizimini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv oliy ta'lim muassasalari, talabalar va ish beruvchilar manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Natijada korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan yuqori malakali, raqobatbardosh va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar bilan ta'minlanadi, oliy ta'lim muassasalari esa mehnat bozori talablariga mos ta'lim dasturlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, bandlik darajasini oshirish hamda inson kapitali sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr. Manba: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-642-son. – Toshkent, 2020-yil 20-oktyabr. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5055690?ONDATE=08.05.2025>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5052-son Farmoni. – Toshkent, 2017-yil 24-may. Manba: <https://www.lex.uz/docs/-3211749?ONDATE=26.11.2025>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori. – Toshkent, 2017-yil 27-iyul. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 30-son, 729-modda. Manba: <https://lex.uz/docs/-3286194>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son Qarori. – Toshkent, 2018-yil 14-iyul. Manba: <https://lex.uz/docs/-3824637?ONDATE=01.01.2024>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 3-oktyabr. Manba: <https://lex.uz/docs/-4549998?ONDATE=23.06.2025%2000>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 8-oktyabr. Manba: <https://lex.uz/docs/-4545884>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023–2025-yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-44-son Qarori. – Toshkent, 2023-yil 3-fevral.
10. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6377444>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olib, ish o'rinlarini tashkil etish va kadrlarni tayyorlash davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 877-son Qarori. – Toshkent, 2017-yil 28-oktyabr. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/6658263>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 28-yanvar.
13. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
14. Герасимова Г. В центре внимания бизнеса и власти – образование // Промышленник России. – 2006. – № 4–5. – С. 7.
15. Лобанова Е.Г. Взаимодействие учреждений профессионального образования с рынком труда // Труд и социальные отношения. – 2008. – № 5. – С. 155.
16. Реалии и перспективы взаимодействия электротехнической компании в сфере труда: интересы, риски, эффективность // Человек и труд. – 2008. – № 3. – С. 14.
17. Коршунов С.В. Механизмы и отраслевые подходы к формированию содержания подготовки инженеров.– Москва, 2007. – 84 с. (С. 17).
18. Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlari portali. Manba: [Vacancy Argos](https://vacancy.uz)
19. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan. Manba: [Qashstat.uz](https://qashstat.uz)
20. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. Manba: [data.egov.uz](https://data.egov.uz)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)